shahrida Doro I va Kserksning turli xonalar va yuz ustunli zali bo'lgan saroyining qoldiqlari saqlanib qolgan. Saroy afsonaviy va xayoliy qushlar tasviri bilan bezatilgan edi. Persepol saroyi devorlaridagi bo'rtma naqshlarda ahamoniylar bo'ysundirgan ko'pgina elatlar- ning tasvirlari saqlanib qolgan. Ular asosan Fors shohlariga o'lpon keltirayotgan holatda tasvirlangan.

Qadimgi forslar mixxat belgi-yozuvidan foydalangan. Fors shohlarining bitiklari Behistun va Naqshi Rostam qoyalari, shuningdek, Persepol saroyi devorlariga o'yib yozilgan. Ular yurishlar, qo'zg'olonlar va davlat hayotidagi muhim voqealar haqida ma'lumot beradi.

### **3. Galileo Galiley hayoti va ilmiy faoliyati.**

Italiyaning yana bir olimi Galiley dunyoda birinchi bo'lib Nikolay Ko-pernik va Jordano Bruno aytgan fikrlar to'g' - riligini osmon jismlarini o'zi yaratgan teleskop yordamida kuzatish orqali isbotlab berdi. Bu ishi uchun 1633-yilda cherkov uni qattiq ta'qib ostiga oldi. O'lim bilan qo'rqitib, qattiq azob- uqubatlarga duchor etdi. Natijada, Galiley o'z fikridan voz kechishga majbur bo'ldi. Biroq u qalban Kopernik ta'limotining ta- rafkori bo'lib qolaverdi.

## **12- BILET**

### **1. AQShning tashkil topishi haqida ma'lumot bering.**

1776-yil mayda Buyuk Britaniyadan ajralib chiqishga da'vat etuvchi qaror qabul qilindi. Rasmiy bayonot- noma tayyorlash uchun virjiniyalik Tomas Jeffeison boshchiligida komissiya tuzildi. 1776-yil 4-iyulda qabul qilingan va asosan, T. Jefferson zakova- tining mahsuli bo'lgan Mustaqillik Deklaratsiyasi yangi davlatning qaror topganligini va butun dunyoda harakatchan kuchga aylangan inson ozodligi haqidagi dunyoqarashni e'lon qildi.

Mustaqillik Deklaratsiyasida davlat qurilishining asosi sifatida xalq suvereniteti prinsipi e'lon qilindi, xalqning zolimlarga qarshi isyon qilishga, yashashga, ozod bodishga, tenglikka bo'lgan huquqi e'tirof etildi. 4-iyul har yili AQSHda Mustaqillik kuni sifatida nishonlanadigan bo'ldi.

### **2. Ma'buda Artemida ibodatxonasi haqida ma'lumot bering.**

Yunonlar Zevsga atab ibodatxona va haykal bunyod etganlar. Xudolar podshosi Zevs taxtda o'tirgan holda tasvirlangan. O'ng qo'lida — ma'buda Nikaning haykali, chap qo'lida — muqaddas burgut o'rnatilgan podsholik hassasi, oltin libosga burkangan, tanasi fil suyagidan taroshlangan, ko'zlari qimmatbaho toshlardan yasalgan Zevs haykalining balandligi 12 metr edi. Haykal shu darajada mahorat bilan ishlanganki, uni tomosha qilgan kishining tashvishlari, g'am-g'ussalari tarqalib ketgan.

Rivoyatlarga ko'ra, xudo Zevsning qizi Ma'buda Artemida sharafiga Efes shahrida (bu shahar hozir Turkiya davlati hududida joylashgan) qurilgan ibodatxona ko'rganlarni lol qoldirgan. Artemida hosildorlik, ov va Oy ma'budasi deb ishonilgan. Ayni paytda hayvonlar homiysi va ayollar madadkori ham hisoblangan. Ibodatxona ichiga yunon rassomlarining ajoyib asarlari joylashtirilgan.

### **3. Dunyo ilm-fanida Ahmad al-Farg'oniy asarlarining tutgan o'rni.**

Ahmad al-Farg'oniy (to'liq ismi Abul Abbos Ahmad ibn Muhammad ibn Kasir al-Farg'oniy) (taxminan— astronomiya, matematika, geografiya va boshqa ilmiy yo'nalishlarda faoliyat ko'rsatgan o'zbek qomusiy olimi. Sharqda Al-Farg'oniy, Yevropada Alfraganus taxalluslari bilan mashhur. Uning hayoti va ilmiy faoliyati to'g'risida juda oz, u ham bo'lsa, uzuq-yuluq ma'lumotlar yetib kelgan. Ahmad al-Farg'oniy hayoti, ilmiy izlanishlari va kamoloti Abbosiylar sulolasi hukm surgan, Arab xalifaligi jahonning eng yirik saltanatlaridan biriga aylanib, uning ijtimoiysiyosiy va madaniy hayotida Movarounnahr, Xorazm va Xurosondan

*Barcha imtihon javoblarini yuklab olish uchun telegram kanalimizga obuna bo'ling!*



kelgan ko'plab mutafakkirlar muhim o'ringa ega bo'la boshlagan tarixiy davrda kechdi. Al-Farg'oniy Xalifa Xorun ar-Rashid (786-809) vorislari al-Ma'mun (813-833), Mu'tasim (833-842) va Mutavakkil (846-861) hukmronlik qilgan davrda yashadi hamda avval Marv, so'ngra Bag'dod, Damashq va Qohira shaharlarida ilmi hay'at (falakiyotshunoslikastronomiya), riyoziyot (matematika) va jug'rofiya (geografiya) fanlari bilan shug'ullandi hamda qator ilmiy va amaliy asarlar yozib qoldirdi.

### 13-BILET

#### 1. Vashington konferensiyasi va uning tarixiy ahamiyati haqida ma'lumot bering.

Uzoq Sharq va Tinch okeandagi bahsli muammolarni hal qilish va dengizdagi qurollarni cheklash maqsadida 1921-yil noyabr - 1922-yil fevral oylarida Vashington konferensiyasi bo'lib o'tdi. Vashington konferensiyasida AQSH, Buyuk Britaniya, Fransiya va Yaponiya o'rtasida shartnoma imzolandi.

1919—1923-yillari imzolangan shartnomalar va jahondagi kuchlarning yangi nisbati xalqaro munosabatlarning Versal-Vashington tizimi nomini oldi. Versal- Vashington tizimi bir guruh davlatlarning dunyoga hukmronligini, dunyo siyosatida AQSH ta'sirining sezilarli kuchayganligini aks ettirdi.

#### 2. Panteon ibodatxonasining o'ziga xos me'morchilik uslublari haqida gapirib bering.

"Panteon" (yun. pantheion — ibodatxo-na) — 1) Qad. Rimdagi "barcha xudolar ibodatxonasi" (2-asr). P. yarim doira shaklidagi qirrador gumbazli (diametri 43 m dan oshiq) inshoot. Markazida instituteryerni yoritib turuvchi tuynuk bor (diametri 9 m ga yaqin). Ichki gumbazi hovuzaklarga (kataksimon shaklda) bo'lingan. Kirish tomoni peshtoqli, 16 ta korinf ustunlari (8 tasi peshtoq oldida, qolgani ichkariroqda) bezab turadi. O'rta ayerlarda P. cherkovga aylangan. Hozir milliy muzey, unda buyuk italyan san'ati vakillari (Rafael, B.Perutssi va boshqalar) dafn etilgan; 2) mashhur shaxslar maqbarasi (Rim va Parijdagi P.lar, Londondagi Vestminster abbatligi).

#### 3. Dunyo ilm-fanida Abu Rayhon Beruniy asarlarining tutgan o'rni.

Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad Al-Beruniy (4-sentabr, 973, Kat (hozirgi Qoraqalpog'istonning Beruniy tumani), Xorazm, — 13-dekabr, 1048 G'azna) — Islom oltin davrining zabardast Xorazmlik qomusiy allomalaridan biri. Al-Beruniy nomi forscha „birun“ („chet“ degan ma'noni anglatadi) so'zidan olingan bo'lib, u Afrig'iy Xorazmshohlar poytaxti Kat shahrining chekka tumanida tug'ilgan[2][3]. Al-Beruniy hayotining dastlabki 25 yilini Xorazmda o'tkazdi, u yerda islom, fiqh, ilohiyot, grammatika, riyoziyot, falakiyot, tibbiyot va falsafa, fizika va boshqa ilmlar bilan ham shug'ullandi. Beruniy ona tili bo'lgan xorazmiy tilidan tashqari fors, arab yunon, ibroniy va suryoniy tillarini bilgan va 50 yoshida sanskrit tilini o'rgandi. Iroqiylarning oxirgi vakili Abu Nasr Mansur ibn Iroq Beruniyning ustoz edi. Al-Beruniy falakiyot, riyoziyot, geodeziya, jug'rofiya va mineralogiya va tabiiy fanlarni yaxshi bilgan. Shuningdek, tarixchi, xronolog va tilshunos sifatida ham ajralib turardi. U o'z davrining deyarli barcha fanlarini mukammal o'rgangani sabab qomusiy alloma deb nomlanadi va ko'plab ilm sohalarida tinimsiz izlanishlari uchun mo'l-ko'l mukofotlangan[4]. Shoh xonadoni va jamiyatdagi boshqa qudratli unsurlar Al-Beruniyning tadqiqotlarini moliyalashtiradi. O'ziga xos ta'sirga ega bo'lgan Al-Beruniyning o'zi ham falsafani o'rganish davomida, boshqa xalqlarning olimlaridan, xususan, yunon olimlaridan ham ilhom olgan.

### 14-BILET

#### 1. Angliya burjua inqilobi va uning tarixiy ahamiyati.

*Barcha imtihon javoblarini yuklab olish uchun telegram kanalimizga obuna bo'ling!*



Yangi, kapitalistik muno- sabatlarga asoslangan tartiblarning o'rnatilishida ingliz burjua inqilobi katta ahamiyatga ega boddi. Bu inqilob faqat Angliyada emas, butun Yevropada kapitalistik munosabatlarning hukmron tartibga aylanishi- ni boshlab berdi. Bu davrda faol tashqi siyosat natijasida bodg'usi Britaniya mustamlakachilik imperiyasining asoslari yaratildi. Ameri- kadagi birinchi mustamlaka - Virjiniyaga asos solindi. Fanda Frensis Bekon, adabiyotda Uilyam Shekspir singari arboblarning nomlari butun dunyoga mashhur boddi.

Inqilobning sabablari. Kapitalistik munosabatlarning rivojlanishi va Reformatsiya natijasida ingliz jamiyatida bodinish yuz berdi. Yangi zodagonlar kapitalizm rivojlanishidan manfaatdor bodsa, qirol va amaldorlar eski tartiblarning saqlanib qolishini istardi. Shunday sha- roitda styuartlarning yangi qirollik sulolasi ingliz parlamenti va pu- ritanlik (kalvinistlar Angliyada shunday atalgan) cherkoviga qarshi kurashga kirishib ketdi. Vujudga kelgan qarama- qarshiliklar inqilob-ning asosiy sababiga aylandi.

Qirol bilan parlament o'rtasidagi nizo Karl I davrida yanada kes- kinlashdi. Qirol parlamentni tarqatib yubordi. Angliyada Karl I ning shaxsiy hukmronligi o'rnatilib, bu davrda savdogarlar, yangi dvoryan- lar, hurfikr dindorlar davlat ishlaridan butunlay chetlatildi.

Inqilobning boshlanishi. 1640-yilning boshiga kelib, xazina bo'shab qoldi. Mamlakatda ko'plab ochlar qo'zg'oloni, Londonda esa ko'cha tartibsizliklari bo'lib o'tdi. Shotlandiya Angliyaga qarshi harbiy hara- katlarni boshlab yubordi.

Shunday sharoitda 1640-yili yangi parlament yig'ildi. Bu parlament uzoq vaqt tarqatilmaganligi uchun «Uzoq muddatli parlament» nomi bilan tarixga kirdi. Bu inqilobning boshlanishi edi. Uzoq muddath parlament bir qancha muhim islohotlarni amalga oshirdi. rai amentning absolutizmga qarshi qaratilgan dastlabki qa- rorlaridan bin qirol ministrlarining sudga tortilishi bo'ldi. Ko'pgina ytiksak lavozimli amaldorlar, yepiskoplar, sudyalar qamoqqa olindi. Aslida amalga oshirilgan bu o'zgarishlar, o'z mohiyatiga ko'ra, Angliya davlat tuzumida yuz bergan inqilobiy to'ntarish edi.

Qirol bilan parlament o'rtasida ftiqarolar urushi. Angliya parlament bilan qirol tarafdorlari bo'lgan bir-biriga dushman ikki lagerga bo'- lindi. Parlamentni savdogarlar, tadbirkorlar va yangi dvoryanlar qo'l- lab-quvvatladi. Eski tartiblardan manfaatdor bodganlarning barcha- si — yirik yer egalari bo'lgan asilzodalar va ularga qaram boigan dehqonlar, saroy amaldorlari, ingliz cherkovi qirol bayrog'i ostida birlashdilar.

## **2. Buyuk Xitoy devori haqida ma'lumot bering.**

Devorni qurish ishlari dastlab mil. avv. IV asrda boshlangan. Bu devor tarixda Buyuk Xitoy devori deb atalgan. Uning balandligi 6-10 metr, qalinligi 5-8 metr, uzunligi esa qariyb 4000 kilometrni tashkil etadi. U qadim zamonlarda dushman qo'shinlari uchun jiddiy to'siq bo'lib xizmat qilgan: otliq qo'shinlar undan oshib o'ta olmas, qal'alarni hujum bilan zabt etishni esa ko'chmanchilar hali uddalay olmasdi.

Podsho va amaldorlar devor qurilishida yuz minglab dehqonlarni majburan ishlatgan.

## **3. Abu Ali ibn Sinoning dunyo tabobat ilmiga qo'shgan hissasi.**

Abu Ali ibn Sino 980-yilda Buxoro yaqinidagi Afshona qishlog'ida mahalliy amaldor oilasida dunyoga keldi. Maktabni bitirgach, ustozlari Abu Abdullohdan mantiq, falsafa, riyoziyot va fiqh ilmlarini o'rganadi O'n olti yoshidan boshlab turli fanlar bo'yicha Sharq va G'arb olimlarining ilmiy asarlarini mustaqil o'rgandi Ayniqsa, u tabobat ilmining qadimgi allomalari Gippokrat va Galen hamda o'rta asr Sharqining buyuk hakimi va mutafakkiri Abu Bakr ar-Roziyning (865-925) asarlarini puxta o'rganadi Ibn Sino o'n yetti yoshidayoq e'tiborli hakim va olim bolib yctishadi. U amir Nuh ibn Mansumi davolab tuzatgach, somoniylarning saroy kutub xonasidan foydalanishga ruxsat oladi Ibn Sino taqdir hukmi bilan Gurganchdagi (Urganch)

*Barcha imtihon javoblarini yuklab olish uchun telegram kanalimizga obuna bo'ling!*



Xorazm Ma'mun akademiyasi olimlari qatorida ijod qiladi U 1037-yilda vafot etadi va Hamadonda dafn etiladi. Ibn Sino 450 dan ortiq, shu jumladan, tibbiyotga doir 43 ta asar yozgan. Uning 5 jildli "Al-qonun-fit-tib"-("Tib qonunlari") nomli qomusiy asarida kasalliklarning kelib chiqish sabablari va manbalari, tashxis, muolaja usullari, dorivor o'simliklar va dori-darmonlarning xususiyatlari, parhez, inson salomatligi uchun jismoniy tarbiyaning ahamiyati kabi tabobatning g'oyat muhim masalalariga alohida e'tibor berilgan. Uning "Al-qonun fit-tib"- asari XII asrdayoq lotinchaga tatjima qilinib, to XVII asrgacha Yevropa tabobatida asosiy qo'llanma sifatida foydalanilgan.

## 15-BILET

### 1. Jakeriya qo'zg'oloni haqida ma'lumot bering.

JAKERIYA (Jacquerie, «Jacques Bonhomme» so'zidan — «Jak Go'l» — dvoryanlar tomonidan dehqonlarga berilgan kamsituvchi laqab) — Fransiyada 1358-y. mulkdorlarga qarshi ko'tarilgan dehqonlar qo'zg'oloni. J. Yuz yillik urush (1337—1453) natijasida vujudga kelgan iqtisodiy tanglik, yollangan askarlarning talon-toroji va yangi soliqlar solinishi tufayli kelib chiqqan. Qo'zg'olon 28-mayda Bovezi viloyatidan boshlandi. Jakeriya ishtirokchilari, asosan, dehqonlardan iborat bo'lib, aholining boshqa tabaqalari ham qatnashgan. Qo'zg'olonchilarga Gilyom Kal boshchilik qilgan. Navarra qiroli Karl 10-iyunda Jakeriya rahbarlarini muzokaraga chaqiradi. Muzokara paytida G. Kal xiyonatkorona qo'lga olinib, qattiq qiynoqlardan so'ng boshi tanasidan judo qilinadi. Karl qo'shinlari to'satdan qo'zg'olonchi dehqonlarga hujum qilib ularni tor-mor keltiradi. 20 mingdan ziyod dehqonlar qirib tashlangan. Rahbarsiz, uyushmagan va aniq rejasi bo'lmagan Jakeriya yengiladi. U dehqonlarni shaxsiy qaramlikdan ozod bo'lishlariga imkon yaratgan.

### 2. Kolizey amfiteatrining o'ziga xos qurilish uslubi haqida ma'lumot bering.

Har bir gladiatorning hayot-mamoti tomoshabinlar xohish-istagiga bog'liq bo'lgan. Jang so'ngida tomoshabinlar yengilgan gladiatorning tirik qolish- qolmasligini hal qilishardi. Agar tomoshabinlarning ko'pchiligi o'ng qo'lining bosh barmog'ini yuqoriga ko'tarsa, yengilgan gladiator tirik qolgan, aksincha, pastga qaratishsa, u tomoshabinlar ko'z o'ngida o'ldirilgan. Janglar ulkan tosh stadionlar - amfiteatrlarda bo'lib o'tardi. 50 ming tomoshabin sig'adigan Kolizey eng katta amfiteatr bo'lgan.

### 3. Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy tomonidan "algebra" atamasini ilm-fanga kiritilishi.

Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy (783-850) Xorazm diyorida tug'ilib, voyaga yetadi. Dastlabki savod va turli sohadagi bilimlarini u o'z ona yurti Xorazm va Mova rounnahr shaharlarida ko'pgina ustozlardan oladi. So'ngra u xalifa Ma'mun zamonida (813-833) "Bayt ul-hikma"da mudir sifatida faoliyat ko'rsatadi. Zamonasining mashhur matematigi, astronomi va geografi sifatida fanga ulkan hissa qo'shdi. Al-Xorazmiy 20 dan ortiq asarlaryozdi Ulardan faqat 10 tasigina bizgacha yetib kelgan. Asarlari orasida, ayniqsa, matematikaga doir "Al-jabr val- muqobala" mashhur. Ilatto, "algebra" atamasi ushbu kitobning "al-jabr" deb yuritilgan qisqacha nomining aynan ifodasidir. Xorazmiy nomi esa matematika fanida "algoritm" atamasi shaklida o'z ifodasini topdi Uning "Al-jabr" asari asrlar davomida avlodlar qolida yer o'lchash, ariq chiqarish, bino qurish, mcrosni taqsimlash va boshqa turli hisob va o'lchov ishlarida dasturilamal bo'lib xizmat qildi. Xorazmiyning bu riso Iasi XII asrdayoq Ispaniyada lotin tiliga tarjima qilinadi va qayta ishlanadi Xorazmiyning arilmetik risolasi hind raqamlariga asoslangan o'nlik hisoblash tizimining Yevropada, qolaversa, butun dunyoda tarqalishida buyuk ahamiyat kasb etdi. Shunday qilib, vatandoshimiz Xorazmiy al-jabmi mustaqil fan

*Barcha imtihon javoblarini yuklab olish uchun telegram kanalimizga obuna bo'ling!*



darajasiga ko'tarib, algebra faniga asos soldi va tarixda o'zidan o'chmas iz qoldirdi

## 16-BILET

**1. Mali davlatining paydo bo'lishi va uning inqirozga yuz tutishining sabablari haqida ma'lumot bering.**

**2. Misr piramidalari haqida ma'lumot bering.**

Qadimgi va O'rta podsholiklar davrida misrliklar barpo etgan ulkan piramidalar fir'avnlarni dafn etiladigan joy - maqbaralar bo'lgan. O'tgan mingyilliklar davomida ko'pdan ko'p shaharlar va davlatlar yo'q bo'lib ketdi, ibodatxonalar va saroylar xarobaga aylandi, faqat piramidalar vaqtdan qo'rqmaydi, faqat piramidalargina to'rt ming yildan oshiq vaqt davomida o'zgarmasdan turibdi.

**3. Nikolay Kopernikning hayoti va faoliyati.**

Nikolay Kopernik 1473-yilning 19-fevralida Polshaning Toruni shahrida tavallud topdi. Uning otasi savdogar bo'lib, bu shaharga Germaniyadan ko'chim kelishgan edi. Nikolay Kopernik oilada to'rtinchi farzand bo'lgan. o'n yoshgacha Nikolay Kopernik farovon va to'qchilikda hayot kechirdi. Uning baxtiyor bolaligi, bo'lajak olim roppa rosa o'n yoshga to'lgan vaqtda to'satdan qayg'uli yillarga almashindi. Yevropaning deyarli yarim aholisini hayotdan olib ketga o'lat epidemiyasi Torunga ham yetib kelib, Nikolay Kopernikning otasini ham o'zining dastlabki qurbonlaridan biriga aylantirdi. Padaridan ayrilgan Kopernikning keyingi taqdiri, uning o'qishi va tarbiyasi muammolari tog'asi. Aynan Boloniyada Kopernik astronomiyaga bo'lgan qiziqishlarini o'zining ilmiy faoliyatiga asos bo'ladigan darajada shakllantirdi. 1497 yil 9 mart oqshomida astronom Domeniko Mari Novara bilan birgalikda Nikolay Kopernik o'zining eng dastlabki ilmiy astronomik kuzatishlarini olib bordi. Bu kuzatishdan keyin Kopernik Oyning kvadraturada joylashgan vaqtidagi yerdan uzoqlik masofasi, yangi oy, yoki to'lin oy vaqtidagilar bilan bir xil ekan. Universitetda o'rgatilgan Ptolomey ta'limoti faktlari bilan bunday nomuvofiqlik Nikolay Kopernikni chuqur ilmiy mulohazalar qilib ko'rishga undadi. 1498-yilning ilk oylarida Nikolay Kopernik sirdan Fromborg kaputulining[1] kanonik martabasidagi ruhoniysi bo'lib qabul qilindi. Bir yil keyin akasi Anjey ham aynan shu kapitulning kanonik ruhoniysiga aylandi. Lekin, bunday martabalarga erishishning natijasi aka - ukalarning moddiy ahvoriga ijobiy ta'sir qilmadi, aksincha, 1499-yil oktyabriga kelib ular butunlay pulsiz qolishdi. Bolonyaga doimiy kelib turuvchi ko'plab boyvachcha xorijliklar va mahalliy amaldorlar bilan taqqoslaganda ularning moddiy ahvoli juda achinarli edi. Ularga shu vaqtlarda Polshadan Italiyaga kelgan kanonik Bernard Skuletto oz bo'lsada moddiy yordam berib turdi. 1500-yilda Nikolay Kopernik qisqa muddatda Polshaga qaytadi. Lekin u tezlik bilan yana Italiyaga yo'l olib, Paduya universitetining tibbiyot bo'limiga o'qishga kiradi. Bir vaqtning o'zida u Ferrara universitetida ilohiyot fanlari doktori unvoniga sazovor bo'ladi. Nikolay Kopernik har tomonlama ma'lumotli va o'qimishli kishi sifatida vataniga qaytdi. Bu qaytish 1503 yilda sodir bo'ldi. Dastlab u Lidzbark shahrida, keyinroq esa Visla daryosining etagidagi kichik baliqchilik shaharchasi - Fromborkda qo'nim topib mahalliy cherkovda ruhoniy bo'lib ishlay boshladi.

## 17. BILET

**1. Yangi dengiz savdo yo'llarining ochilishi va uning tarixiy ahamiyati haqida ma'lumot bering.**

Portugaliya va Ispaniya dengizchilari yangi dengiz yo'llari ochilishining tashabbuskorlari bo'lishdi. Yangi dengiz yo'llarini ochish dengizchilardan katta dovyuraklikni ham talab etgan,

*Barcha imtihon javoblarini yuklab olish uchun telegram kanalimizga obuna bo'ling!*



albatta.

Yangi dengiz savdo yo'li ochishga birinchi bo'lib Ispaniya qirolligiga xizmat qilgan dengiz sayyohi admiral Xristofor Kolumb rahbarlik qildi. U o'z oldiga Yevropadan Atlantika okeani orqali Hindistonga boradigan dengiz yo'li ochishni maqsad qilib qo'ydi. Nihoyat, 1492-yilning yozida X. Kolumb boshchiligidagi 3 ta kema Atlantika okeani orqali harakatni boshladi.

## **2. Tojmahal maqbarasining dunyo me'morchiligidagi o'rni.**

Hindistonning Agra shahri yaqinida joylashgan. Tojmahal maqbarasi jahon me'morchiligining betakror namunasi. Shuning uchun ham unga dunyo mo'jizalaridan biri deb baho berilgan. Maqbarani boburiy hukmdor Shoh Jahon vafodor xotini Mumtoz Mahalbegim xotirasiga bag'ishlab qurdirgan. Maqbara 1653-yilda qurib bitkazilgan. Tojmahal maqbarasi bugungi kunda ham o'zining go'zal salobatini ko'z-ko'z qilib turibdi.

## **3. Marko Polo hayoti va faoliyati.**

Marko Polo (italyancha: Marco Polo; 1254 yil 15 sentyabr, Venesiya – 1324 yil 8 yanvar, Venesiya) — italiyalik sayyoh va yozuvchi. M. P. 1271—75 yillarda venetsiyalik savdogarlar bilan birga kemada Kichik Osiyo yarim orolning jan.-sha-rqiy sohillariga, u yerdan Bag'dod, Basra, Tabriz va Kermonga kelgan, so'ngra Balx, Qashqar, Xotan, Kampichu (Gan-chjou) shaharlari va Gobi cho'lini kesib o'tib Qoraqurumga yetib borgan. M. P. Xitoyda 17 yil yashagan, Xubilayxon saroyida 1292-yilgacha uning xizmatida bo'lgan. U mamlakatning turli viloyatlarini borib ko'rgan. M. P. Xonbaliq (Pekin) shahridan myanmaliklarning ilk davlati Paganning 11 —13-asrlardan poytaxti bo'lgan Pagan shahriga (mamlakat markazida) sayohat qilib, yana orqaga qaytgan. So'ngra Janubiy Xitoy dengizi, Bengaliya qo'ltig'i, Arabiston dengizi, Eron orqali 1295-yil vataniga qaytib borgan. Rustichano bilan birga "Marko Polo kitobi"ni (1298) yozib qoldirgan. Bu asar Kavkaz xalqlari, Eron, Xitoy, Mongoliya, Hindiston, Indoneziya va boshqa mamlakatlar geografiyasi, etnografiyasi va tarixi haqida muhim ma'lumotlar beradi; shuningdek, unda xalq udumlari, rivoyatlar, ertaklar ham bor. Boshqa Yevropa tillariga tarjima qilingan bu kitob 14—16-asrlarda yashagan dengizchilar, yozuvchilar va haritashunoslar (jumladan X. Kolumb va L. Ariosto)ga ta'siri katta bo'lgan

## **18- BILET**

### **1. Afina davlatining vujudga kelishi va uning o'ziga xos davlat boshqaruvi haqida.**

Afina qadimiy shahar. Shaharning vujudga kelgan vaqti aniq emas, rivoyatlarga ko'ra Afina o'rnida miloddan avvalgi 16- 13-asrlarda qishloqlar bo'lgan. Mil. av. 5-asrda Afina iqtisodiy, siyosiy va madaniy rivojlanishining eng yuqori pog'onasida bo'lgan. 395-1204-yillarda Vizantiya imperiyasi tarkibida. 1204 — 1458-yillar Afina hersogligi poytaxti, [1458-yildan](#) turklar tasarrufiga o'tgan. [1834-yildan](#) Yunoniston poytaxti. Afina va Spartaning munosabati 479/78 yil qishda. Fukidid Afina balandligining tavsifini boshlaydi. 491 yildan beri Sparta va Afina kelishmovchiliklarga qaramay, yaqinlashdilar. Ularning jangchilari va dengizchilari Artemisia, Salamina, Pay ayollarida yonma-yon kurashmoqda. Qadimgi Yunoniston kitob tarixidan Muallif Hammond Nikolas. Afina davlatining shakllanishi Spartadan ko'ra, Spartadan ko'ra ko'proq rivojlangan, ijtimoiy-iqtisodiy nuqtai nazarga qaraganda ancha rivojlangan (ATTICI tomonidan) qolgan holda qolgan ellad o'z ta'siriga bo'ysunadi. Klassik usulni shakllantirish. Kitobdan davlat va qonunning umumiy tarixi. 1-jild. Muallif Omelchenko Oleg Anatolyevich. Atrofiya siyosatining chigiti mintaqasini shakllantirishda qadimgi Egey tsivilizatsiyasini o'zlashtirish, quyi xalqlar bilan ko'proq qo'shni munosabatlarni o'rnatgan genian zabt etish paytida bir guruh ion qabilalari tomonidan qo'lga

*Barcha imtihon javoblarini yuklab olish uchun telegram kanalimizga obuna bo'ling!*



olingan.

## **2. Piza minorasining tarixdagi o‘rni haqida ma’lumot bering.**

Piza minorasi jahon madaniyatining mashhur namu- nalaridan biri sanaladi. U XII—XIV asrlarda Italiyaning Piza shahridagi Sobor maydonida qurilgan. Minora 8 qavatli bo‘lib, oq marmardan ishlangan. Minora silindirsimon shaklga ega, ba- landligi 54,5 metrni tashkil etadi. Sirt qismi olti belbog‘ bilan o‘ralgan. Minoraning tepasiga 300 ta pillapoyali zinadan chiqilgan. Piza minorasi «Qulayotgan minora» deb ham ataladi. Bunga u qurilgan joyning cho‘kishi oqibatida minoraning bir to- monga og‘ganligi sabab bo‘lgan. Og‘ishni to‘xtatish choralari ko‘rilgan bo‘lsa-da, o‘tgan bir necha asr davomida bu og‘ish 5 metrga yaqinlashib qoldi. Keyingi 100 yil ichida esa bu ko‘rsatkich 30 sm ni tashkil etdi.

## **3. German imperatori Fridrix II ning faoliyati haqida ma’lumot bering.**

Fridrix II (1712.24.1, Berlin 1786.17.8, Potsdam) — Prussiya kiroli (1740-yildan). Gogensollernlar sulolasidan. Qirol Fridrix Vilgelmning o‘g‘li. Yirik sarkarda. Yoshligida fransuz ma’rifatparvarlari ta’sirida bo‘lgan. Ayni vaqtda pruss harbiybyurokratik militarizmining eng izchil vakillaridan. 1740-yil F.P Avstriyaga tegishli Sileziyaga bostirib kirib, bir necha bor urush qilgan. 1Sileziya urushi (1740—42) va 2Sileziya urushi (1744—45) natijasida muhim iqtisodiy va strategik ahamiyatga ega bo‘lgan bu o‘lkani o‘ziga tobe qilgan. 1756—63 yillardagi Yetti yillik urushda Avstriya va Fransiya qo‘shinlariga bir necha marta zarba bergan. F. II o‘zini san’atni qadrllovchi va homiysi qilib ko‘rsatgan. Bir qator falsafiy va tarixiy asarlarning muallifi bo‘lgan. Asarlarini, asosan, fransuz tilida yozgan. Absolyutizmni mustahkamlash yuzasidan F.P bir necha islohotlar o‘tkazgan. F. II davrida Prussiya buyuk davlatlar qatoriga chiqqan, uning hududi 2 barobar ko‘paygan. Ammo zulm va rasmiyatchilikka asoslangan bu davlat mustahkam bo‘lmagan. F. II vafotidan so‘ng ko‘p o‘tmay Prussiyaning Fransiya bilan olib borgan urushlarida bu ahvol ochiq namoyon bo‘lgan.

## **19-BILET**

### **1. SSSRning tashkil topishi.**

1922-yili amalga oshirilgan muhim tadbirlardan biri SSSRning tashkil topishi bo‘ldi. Millatlarning o‘z huquqini o‘zi belgilash tamoyi lidan kelib chiqib, barcha respublika lar federativ davlatga teng huquqli a‘zo bo‘lib kirdilar Natijada, 1922-yil 30-dekabr kuni sobiq Rossiya imperiyasi hududida Sovet Sotsialistik Respublikalari Ittifoqi (SSSR) tash kil qilindi Bu yangi davlatda eski jamiyat ning asoslari buzib tashlandi, «davlat sotsi alizmi» (davlatning iqtisodiyot ga va ijtimoiy munosabatlarga aralashuvi) o‘matildi va iqtisod, jamiyat, davlat misli ko‘rilmagan sur‘atlarda isloh qilindi. Sovet tipidagi «davlat sotsializmi» jamiyatni industr lashti rishning kapitalistik usuliga muqobil yo‘l cdi.Dastlab SSSRga Rossiya, Ukraina, Belorusiya va Kavkazorti respublikalari kirdilar 1924-yili davlatning birinchi konstitutsiyasi qabul qilindi 1924-yili Kavkazorti va O‘rta Osiyoda milliy-hududiy chegaralanish o‘tka zilib, milliy sovet respublikalari tashkil qilindi. Shu yil lari SSSR Yevropa davlati ari tomonidan, 1933-yili oxirgi yirik davlat - AQSH tomonidan tan olindi SSSRning 1-davlat rahbari Iosif Vissarionovich Jugashvili (Stalin) bo‘lgan.

### **2. Eyfel minorasining qurilishi va uning o‘ziga xos me’morchilik uslublari haqida ma’lumot bering.**

Eyfel minorasi Siz bilgan boshqa minoralardan farqli o‘laroq, metalldan ishlangan. U 1899-yilda Fran- siyaning quruvchi-muhandisi Aleksandr Eyfel tomonidan Parij shahrida bunyod etilgan. Muhandis uni XIX asr texnikasi yutug‘ining ramzi sifatida qurgan edi. Metalldan ishlangan va o‘sha davrda ja- honda tengi bo‘lmagan bu minora Jahon ko‘rgazmasida

*Barcha imtihon javoblarini yuklab olish uchun telegram kanalimizga obuna bo‘ling!*



namoyish etilgan. Minora- ning balandligi 300 metrga yaqin bo‘lib, og‘irligi 9 ming tonnani tashkil etgan. Mi- noraning quyi qismi kvadrat piramida ko‘ri- nishiga ega.

### **3. Fransua Bushe ijodi va faoliyati.**

XVIII asrning birinchi yar- mida Yevropa tasviriy san’atida hali ham saroy ahlining nozikta’b san’ati gullab-yashnardi. Bu davrda «qirolning birinchi tasvirchisi», afso- naviy sahnalarning ajoyib ustasi Fransua Bushe (1703-1770) edi. Uning real hayotdan cheksiz yiroqda bo‘lgan suratlari aristokratlar saroyla- liga ajoyib bezak bo‘la olardi.

## **20-BILET**

### **1. Iyerogliflar sirining kashf etilishi.**

Taniqli fransuz olimi Jak-Fransua Shampolyon 1822-yilda jahonshu- mul ahamiyatga molik kashfiyot qildi: qadimiy Misr matn- larini o‘qishga muvaffaq bo‘ldi. Bu kashfiyotga Qohira shahridan uncha uzoq bo‘lmagan Rozett shahri yaqinidagi bir toshga chekilgan qadimgi misr va qadimgi yunon tilla- ridagi bir xil ma’nodagi bitik sababchi bo‘ldi. Yunon tilidan tarjima qilish qiynchilik tug‘dirmadi, matnlarni taqqoslab ko‘rib, har bir iyeroglif anglatgan ma’noni tushuntirib be- rish imkoni topildi. Ana shu kashfiyotdan keyin papiruslarga bitilgan ko‘plab matnlar, ibodatxonalar va piramidalar de- vorlaridagi bitiklar ko‘p asrlik jimjitlikdan so‘ng “tilga kir- di”. Tarixchilar esa qadimgi Misr sivilizatsiyasini o‘rganish uchun muhim va ishonchli manbaga ega bo‘lishdi. Bugun- gi kunda Rozett bitiktoshi Londondagi Britaniya muzeyida saqlanmoqda.

### **2. Parfenon ibodatxonasining o‘ziga xos me’morchilik uslublari haqida gapirib bering.**

Yunon haykaltaroshi Fidiy Akropoldagi ibodatxo- na — Parfenon qurilishiga boshchilik qilgan. Parfenon binosi va uning ustunlari marmar toshlardan qurilgan. Qadimda ibodatxonaga kirish yo‘li - peshtoqning yuqori qismi yunon ma’budlarining haykallari bilan bezatilgan.

### **3. Lui Paster hayoti va faoliyati.**

Louis Pasteur (talaffuzi: Lui Paster; 27-dekabr, 1822 – 28-sentabr, 1895) — fransuz kimyogari va mikrobiologi, hozirgi zamon mikrobiologiyasi va immunologiyasi asoschilaridan biri. Parij Fanlar akademiyasi (1862) va Fransiya tibbiyot akademiyasi (1873), Fransiya akademiyasi (1886) akademik Strasburg universiteti (1849), Lill universiteti (1854), Oliy normal maktab (1857) va Parij universiteti (1867) professor 1888-yil Parijda xususiy mikrobiologiya ilmiy tadqiqot institutini (Paster instituti) tashkil qiladi va boshqaradi. P. spirtli (1860), sut kislotali va yog‘ kislotali (1861) bijg‘ishlar mikroblarning ferment ishlab chiqarish faoliyati sa- babli vujudga kelishini, kislorodsiz sharoitda yashaydigan mikroblar — ana-eroblar borligini isbotladi. P.ning vino hamda pivolarning achib qolishi va pilla qurti kasalliklari (1870) sabablarini aniklab, bu mikroblarga qarshi samarali chora-tadbirlarni (pasterizatsiya usuli) ishlab chiqishi sanoat va oziq-ovqat mikrobiologiya -sining shakllanishiga asos bo‘ldi. P. dunyoda birinchi bo‘lib ilmiy izlanishlar natijasida parrandalar vabosi (1879), kuydirgi (1881) va quturish (1885) kasalliklariga qarshi vaksina tayyorlash usulini ishlab chikdi va kasallikning oldini olishda kuchsizlantirilgan kasallik qo‘zg‘atuvchi bilan emlash mumkinligini tasdiqlab, immunizatsiya (immunlash)ga asos soldi.

## **21-BILET**

### **1. Birinchi jahon urushi va uning oqibatlari.**

XX asmingboshlarida jahondagi yirik davlatlarning mustamlakalarga ega bo'lish masalasida o'zaro munosabatlari keskin ko'rinish oldi Birinchi jahon urushi da Rossiya, Angliya va Fransiya davlatlaridan iborat ittifoq - Antanta tomonida turib urushda qatnashdi Rossiya

*Barcha imtihon javoblarini yuklab olish uchun telegram kanalimizga obuna bo'ling!*



imperiyasining Birinchi jahon urushida ishtirok etishi uni iqtisodiy jihatdan yomon ahvolga solib qo'ydi. Busiz ham G'arbiy Yevropa davlatlaridan taraqqiyoti ancha orqada qolib ketgan Rossiya urush tufayli yanada nochor ahvolga tushib qoldi Natijada podsho hukumati o'z mustamlakalaridan, jumladan, Turkiston o'lkasidan ham yanada ko'proq fovda olish uchun ulaming tabiiy boyliklarini ko'proq o'zlashtirishga jonjahdi bilan kirishdi. Mahalliy aholidan esa arzon mehnat kuchi sifatida foydalanishga harakat qildi. Bu urush tufayli Rossiyada ommaviy safarbarlik e'lon qilindi Safarbarlik Rossiyaning mustamlakalariga ham, jumladan, Turkistonga ham tegishli edi Unga ko'ra Turkiston o'lkasidan urushga 19 yoshdan 43 yoshgacha bo'lgan aholining yevropalik qismi vakillari chaqirildi Aynan hosillami yig'ib olish vaqtiga to'g'ri kelgan bu chaqiruv Turkiston o'lkasidagi Rossiya gubemalaridan ko'chirib keltirilganlaming oilalari uchun qiyinchilik tug'dirdi. asosiv ishchi kuchi bo'lgan erkaklaming uaishga olinishi oilaning asosiy boquvchisidan ajralishiga va ularning yomon ahvolga tushishiga sabab bo'ldi. 1914-yilda Turkistonda «favqulodda muhofaza holati» deb e'lon qilinishi natijasida mustamlaka hukumatning mahalliy aholi ustidan nazorat va jazo choralari kuchaydi Turkiston aholisi uaishga safarbarlik e'lon qilinishiga qarshi chiqib, «favqulodda holat» tartiblariga rioya etmay qo'ydilar. Bunday tartiblarni buzganlar 50 so'mgacha jarima to'laydigan yoki 3 oygacha qamoqqa olinadigan bo'ldi. Busiz ham aholi turmush sharoitining yomonligi, oziq-ovqat va boshqa mahsulotlarning yetishmasligi, narx-navoning oshib ketganligi o'lkada norozilik kayfiyatining yanada oshishiga hamda ommaviy ko'rinishdagi qo'zg'olonlarning kuchayishiga sabab bo'ldi. Urush davomida qishloq xo'jaligi vayron bo'ldi, ekin maydonlari qisqarib ketdi, qishloqda ishchi kuchlar yetishmas edi. Temiryo'lda boshboshdoqlik hukmron bo'lib, amalda esa u harbiy davr yuklarini tashir edi. Butun xo'jalik aloqalari izdan chiqqan. Rossiya iqtisodiyoti urush va bunday ko'lamdagi harbiy harakatlar uchun zaif ekanligi ayon bo'ldi Davlat moliyasi inqirozga yuz tutdi Maorifga, madaniyatni rivojlantirishga xarajatlar kamayib ketdi va mayda kredit deyarli qolmadi. l'aqat uaishning bir yili davomida soliqlar miqdori 50 foizga ko'paydi. Talafotlar o'mini to'ldirish va harbiy xarajatlar o'sishini qoplash maqsadida qo'shimcha mablag'lar izlar ekan, chor hukumati o'zi uchun ancha odatiy va eng oson bo'lgan yo'ldan, ya'ni o'z mustamlaka o'lkalarini talashdan, urush olib borish uchun sarf-xarajatlaming katta qismini o'z mustamlakalari, jumladan, Turkiston o'lkasi gardaniga yuklash yo'lidan bordi. 1915-yildan boshlab, Turkistonda paxtaga o'zgarimas davlat narxlari joriy etildi, narxlar umumiy o'sishi sharoitida bu narx paxtakorlarning hosil yetishtirishdagi xarajatlarini qoplay olmas edi.

## **2. Ozodlik haykalining bunyod etilishi.**

Ozodlik haykali (fransuzcha: La Liberté éclairant le monde) jahonning eng tanilgan obidalaridan biri bo'lib, 1886-yil AQShning New York shahrida qurilgan. Ozodlik haykali AQShning eng katta timsollaridan biridir. Misdan yasalgan Ozodlik haykali, Fransiya tarafidan qurulishining 100-yili sababli AQShga sovg'a qilingan. Haykal, 1884—1886-yillari orasida Frederic Bartholdi tarafidan qurilgan. Haykalning po'lat skeletini yasovchisi Gustave Eiffel, poydevorini quruvchisi esa Richard Morris edi. Haykalning o'ng qo'lida mash'al, chap qo'lida esa bir jadval bor. Jadvalning ustida 4-iyul 1776-yil deb yozilgan (Mustaqillikni bildiruvchi sana). Mash'alning esa 7 dengizni ifodalovchi 7 uchi bor. Haykalning uzunligi 46 m bo'lib, poydevori bilan birga 93 m dir. Turistlar haykalning ichidan mash'algacha 168 zinapoyadan iborat bo'lgan zinadan chiqishlari mumkin. Haykalning mash'al ushlab turgan o'ng qo'lining uzunligi 23 metrdir. Mash'alning atrofidagi bo'shliqda tahminan 15 kishi bemalol yon-mayon yursa bo'ladi. Haykalning boshining kengligi 2 metr, boshidagi tojining uzunligi esa 5 metrdan iborat.

*Barcha imtihon javoblarini yuklab olish uchun telegram kanalimizga obuna bo'ling!*



### **3. Gomerning ijodi va faoliyati.**

Homer (qadimgi yunoncha: Ὅμηρος, Hómēros) yunon shoiri, „Iloada“ va „Odisseya“ asarlari muallifidir. Uning hayoti haqida aniq ma'lumotlar yo'q. Turli davrlarda yaratilgan tadqiqotlarda uning yashab o'tgan davrini mil. av. 12-asr bilan 7-asr oralig'ida deb ko'rsatiladi. Homerning so'qir bo'lgani, o'z asarlarini baxshilar kabi og'zaki aytgani ma'lum. Ularni kim, qachon yozib olgani aniq emas. Homerga nisbat berilgan asarlar ko'p, ammo gomershunoslar kup tortishuvlardan keyin fakat 2 asarni — „Iliada“ va „Odisseya“ Homerniki deb tan olishgan. Ularning ikkovi ham qahramonlik eposi bo'lib, yunon mifologiyasi asosida yaratilgan. Shu bilan birga, ularda faqat she'rlar, afsonalar va rivoyatlargina emas, real tarixiy voqealar ham aks etgan. Jumladan, „Iliada“ dostonida tasvirlangan Troya ko'p zamonlar afsonaviy shahar hisoblanib kelingan, ammo buyuk arxeolog Shpilman ko'p yillik izlanishlardan so'ng uni topdi va bu shahar tarixda mavjud bo'lganini isbot qildi. Homer asarlaridan namunalari o'zbek tiliga tarjima qilingan (Mirtemir, Qodir Mirmuhamedov va boshqalar)

## **22-BILET**

### **1. Mesopotamiyada shahar-davlatlarning vujudga kelishi haqida ma'lumot bering.**

Mesopotamiya aholisining asosiy mashg'uloti dehqonchilik bo'lgan. Dajla va Frot daryolarining har yil- gi toshqinlari mahalida suv bilan birga dalalarga unumdor loyqa oqib kelgan. Mesopotamiyada yog'och va metall kabi xo'jalik uchun zarur materiallar bo'lmagan, ammo don mo'l-ko'l yetishtirilgan, chorva mollari ko'p bo'lgan. Shuning uchun Mesopotamiya aholisi savdo-sotiq bilan ham shug'ullanardi. Qo'shni Kavkazorti va Eron o'lkalaridan donga ayirboshlab oltin, mis, kumush, qalay va noyob toshlarni keltirardi. Mesopotamiyada turli hunarmandchilik buyumlari bilan ham savdo qilishgan. Metall buyumlar, zeb-ziynatlar, qurol-yarog' va kulolchilik buyumlari ayniqsa qadrlangan. Savdo-sotiqda kumush quymasi ko'ri- nishidagi metall tangalar ishlatilgan. Mesopotamiyadagi og'irlik o'lchovi „mino“ 550 gramm kumushga barobar bo'lgan.

Shumerlar jahondagi eng qadimgi yozuvlardan biri — mixxatni ixtiro qilgan. Shumerlar uchi o'tkir- langan tayoqchalar bilan loy taxtachalarga yozgan. Shumerlar bilimdon, tajribali quruvchilar va hunar- mandlar bo'lgan.

Vaqt o'tishi bilan asta-sekin manzilgohlar nihoyatda kengayib ketdi. Miloddan avvalgi 4-mingyillik oxirida Mesopotamiyada Uruk, Umma, Lagash, Ur va boshqa shaharlar vujudga kela boshladi. Ular shahar va unga tutash dehqonchilik tumanlaridan iborat bo'lgan shahar-davlatlar edi.

Har bir shaharda oliy ma'bud nomidan koinlar hukm- ronlik qilgan, ibodatxonalar esa davlatdagi hokimiyat markazi bo'lgan. Mesopotamiyaning qadimiy ibodatxonalari — zikkuratlar xom g'ishtdan terib chiqilgan muhtasham zinapoyali inshoot bo'lgan.

Quyosh ma'budi - Shamash alohida ehtiroimga sazovor bo'lgan iloh, oliy hakam hisoblanib, yovuz ishlari uchun odamlarni sud qilgan. Shuningdek, shumerliklar Oy ma'budi - Sin, suv ma'budi - Ea, hosildorlik va sevgi, urush va g'alaba ma'budasi - Ishtarga sig'ingan.

Mesopotamiyaning katta yer-mulkari hukmdorlar va koinlar qo'l ostida bo'lgan. Dalalarga qullar va erkin yollanma ishchilar ishlov bergan. Shaharlar tevaragida istiqomat qiluvchi aholi kichik-kichik yer ulushlariga ega bo'lgan. O'z oilasini boqish uchun kambag'allar podsho va ibodatxona mulklarida ishlagan.

### **2. Kolizey amfiteatrining o'ziga xos qurilish uslubi haqida ma'lumot bering.**

Kolizey (italyancha: Colosseo; asl nomi: Flaviy Amfiteatri) Italiya poytaxti Rimning

*Barcha imtihon javoblarini yuklab olish uchun telegram kanalimizga obuna bo'ling!*



markazida joylashgan elliptik amfiteatrdir. Kolizey Rim Imperiyasi paytida (milodiy 72-80-yillarda), imperator Vespasian, keyin esa Tit Flaviy tomonidan qurdirilgan. Rim me'morchiligi va muhandisligi namunasi hisoblanadi. Zilzila va qaroqchilik tufayli ko'p qismi buzilib ketgan. Kolizey, Kolossey (lot. colossus — ulkan) — Qad. Rimdagi me'moriy yodgorlik (milodiy 75—80 yillar). Imperator Tit qurdirgan. Keyinchalik Flaviy amfiteatr" nomi bilan mashhur bo'lgan. K.balandligi 57 m, tarhi ellips shaklida (524 m). 4 qatlamli o'rindiqqa 50 ming tomoshabin joylashgan. Sahna tagida hayvonlar qafasi, omborxon bo'lgan. Imperator o'rindig'i sahna bilan teng (balandligi 3,5 m) bo'lgan. 1-qatlamda imperatorning yaqinlari, 2-qatlamda yuqori tabaqali kishilar, 3 va 4 qatlamda oddiy xalq o'tirgan. O'rindiklar toshdan ishlangan, galereyalarining konstruksiyalari beton va g'isht bilan mustahkamlangan. K. ning ulug'vor old tomoni 4 qavatli, har biri 80 ta ravoqlar qatori bilan jozibador ishlangan, pastki qismidan tomoshabinlar kirish va chiqishda foydalanganlar. K. markazidagi sahnada bayram marosimlari, qurbonlik, gladiatorlar jangi, teatr tomoshalari o'tkazilgan.

### **3. Lyudvig va Betxoven ijodi va faoliyati.**

Ludwig van Beethoven va Ludwig Minkus (Lyudvig Minkus) musiqachi o'laridir va ularning ijodi va faoliyati turli xil. Ludwig van Beethoven (1770-1827) Avstriya va Germaniyalik musiqachi, klavirchi va simfoniya orkestri dasturchisi hisoblanadi. Uning ijodi dunyo musiqasi tarixida ahamiyatli darajada hisoblanadi. Beethoven ijodida boshqa musiqachilarga ta'sir ko'rsatgan, avvalgi davrning tarzlaridan o'zini yirik darajaga olib chiqargan va musiqaga yangi tarkibiy xususiyatlar qo'shgan. Uning ijodida orkestr musiqasi, klavir dasturiy asarlari, kameral musiqa konsertlari va boshqa ko'plab xil turlarda asarlar mavjud. Ludwig Minkus (1826-1917) esa Avstriya, Fransiya va Rossiya davlatlarida faoliyat yuritgan baletchi va musiqachi hisoblanadi. Uning asarlarida balet uchun musiqani yaratish tufayli o'sha davrda Rossiyada balet asri deb atalgan va boshqa baletchilarga ham ta'sir ko'rsatgan. Uning asarlari orasida "Don Quixote", "La Bayadere", "Paquita" va boshqa baletlar keltiriladi.

## **23-BILET**

### **1. Bug' mashinasining ixtiro qilinishi va uning tarixiy ahamiyati.**

Bug' mashinasi — birlamchi porshenli dvigatel; bunda siqilgan suv bug'ining potensial energiyasi mexanik ishga aylanadi. Uzluksiz ishlaydigan Bug' mashinasi loyihasini I. I. Polzunov ishlab chiqqan (1763). Universal dvigatel sifatida 1774—84 yillarda J. Uatt yaratgan. 19-asr oxirigacha sanoat va transportda yagona dvigatel bo'lgan. Bug' mashinasini rivojlantirish ishi fabrika va zavodlar, elektr stansiyalari, parovoz, kema va lokomobillar uchun, qishloq xo'jaligi va mahalliy sanoat ehtiyojlari uchun statsionar Bug' mashinasi yaratishga olib keladi. Bug' mashinasining tortish karakteristikasi yaxshi, ortiqcha bosim va reverslashga moslashuvchan, puxta va oddiy tuzilgan. Quvvati 15 MVt gacha, f. i. k. 20—25% ga yetadi. Kamchiligi iqtisodiy samaradorligi pastligi va quvvati cheklanganligidir.

### **2. Buyuk Xitoy devorining qurilishi va uning o'ziga xos vazifasi haqida ma'lumot bering.**

Devorni qurish ishlari dastlab mil. avv. IV asrda boshlangan. Bu devor tarixda Buyuk Xitoy devori deb atalgan. Uning balandligi 6-10 metr, qalinligi 5-8 metr, uzunligi esa qariyb 4000 kilometrni tashkil etadi. U qadim zamonlarda dushman qo'shinlari uchun jiddiy to'siq bo'lib xizmat qilgan: otliq qo'shinlar undan oshib o'ta olmas, qal'alarni hujum bilan zabt etishni esa ko'chmanchilar hali uddalay olmasdi.

Podsho va amaldorlar devor qurilishida yuz minglab dehqonlarni majburan ishlatgan.

### **3. Abu Ali ibn Sinoning dunyo tabobat ilmiga qo'shgan hissasi.**

*Barcha imtihon javoblarini yuklab olish uchun telegram kanalimizga obuna bo'ling!*



Abu Ali ibn Sino 980-yilda Buxoro yaqinidagi Afshona qishlog'ida mahalliy amaldor oilasida dunyoga keldi. Maktabni bitirgach, ustozi Abu Abdullohdan mantiq, falsafa, riyoziyot va fiqh ilmlarini o'rganadi O'n olti yoshidan boshlab turli fanlar bo'yicha Sharq va G'arb olimlarining ilmiy asarlarini mustaqil o'rgandi Ayniqsa, u tabobat ilmining qadimgi allomalari Gippokrat va Galen hamda o'rta asr Sharqining buyuk hakimi va mutafakkiri Abu Bakr ar-Roziyning (865-925) asarlarini puxta o'rganadi Ibn Sino o'n yetti yoshidayoq e'tiborli hakim va olim bolib yctishadi. U amir Nuh ibn Mansumi davolab tuzatgach, somoniylarning saroy kutub xonasidan foydalanishga ruxsat oladi Ibn Sino taqdir hukmi bilan Gurganchdagi (Urganch) Xorazm Ma'mun akademiyasi olimlari qatorida ijod qiladi U 1037-yilda vafot etadi va Hamadonda dafn etiladi. Ibn Sino 450 dan ortiq, shu jumladan, tibbiyotga doir 43 ta asar yozgan. Uning 5 jildli "Al-qonun-fit-tib"-("Tib qonunlari") nomli qomusiy asarida kasalliklarning kelib chiqish sabablari va manbalari, tashxis, muolaja usullari, dorivor o'simliklar va dori-darmonlarning xususiyatlari, parhez, inson salomatligi uchun jismoniy tarbiyaning ahamiyati kabi tabobatning g'oyat muhim masalalariga alohida e'tibor berilgan. Uning "Al-qonun fit-tib"- asari XII asrdayoq lotinchaga tatjima qilinib, to XVII asrgacha Yevropa tabobatida asosiy qo'llanma sifatida foydalanilgan.

## 24-BILET

### 1. Ahamoniylar davlatining tashkil topishi va uning dunyo tarixidagi o'rni.

Mil. avv. 558-yilda Ahamoniylar sulolasidan bo'lmish podsho Kir II barcha fors- larni o'z hokimiyati ostida birlashtirdi. Midiya podsholi- gini bo'ysundirganidan so'ng Kir II ulkan lashkar tuzdi va bosqinchilik yurishlarini davom ettirdi.

Armaniston, Midiya va Bobil zabt etildi. Forslar O'rta Yer dengizi sohiliga chiqib, Falastin va Finikiyani bo'ysundiradi. Kir II ning istilochilik siyosatini vorislari — Kambiz II va Doro I ham davom ettirdi. Kambiz II Misrni zabt etish orqali Fors davlati hududini nihoyatda kengaytirdi. Ahamoniylar davlati jahondagi eng yirik davlatlardan biri bo'lgan.

### 2. Avliyo Sofiya ibodatxonasining o'ziga xos me'morchilik uslublari haqida gapirib bering.

Sofiya ibodatxonasi (qadimgi yunoncha: Ἁγία Σοφία; lotincha: Sancta Sapiientia; turkcha: Ayasofya), bugungi kundagi rasmiy nomi: Ayo Sofiya (Avliyo Sofiya) ibodatxonasi (turkcha: Ayasofya-i Kebir Cami-i Şerifi)[1] — Istanbuldagi me'moriy yodgorlik. Vizantiya me'morligining buyuk mahobatli yodgorligi (532–537). Ibodatxona eramizning 360-yilidan 1453-yilgacha Usmonlilar imperiyasi tomonidan Konstantinopol zabt etigunga qadar yunon pravoslav cherkovi bo'lgan. 1935-yilgacha masjid vazifasini bajarib, muzeyga aylangan. 2020-yilda qayta masjid bo'lib ochildi. Me'morlari trallik Anfimiy va miletlik Isidor. Sofiya ibodatxonasi tarhi 3 neflik gumbazli bazilika shaklida bo'lib, yon neflari 2 qatlamli, gumbazi yarim aylanasimon. O'rta nefi keng va baland, tomi ulkan gumbaz bilan qoplangan. Ibodatxona uzunligi 77 m, gumbaz diametri 31,5 m. Gumbazi 4 ustunga hamda bag'alidagi ravoqlarga tayangan. Gumbaz asosiga 40 ta deraza ishlangan. Interyerida order tizimi (kolonnada, ravoq va boshqalar) dan foydalanilgan. Rangli marmar va koshinlar bilan serhasham bezatilgan. 6-asrda vayron bo'lgan gumbazi 1374-yilda kichik hajmda qayta tiklangan. 4 tomoniga nayzasimon minora ishlangan (16-18-asrlar).

### 3. Jordano Brunoning ijodi va faoliyati.

Italiyalik faylasuf Jordano Bruno Neapolning sharqida joylashgan Nola shahrida mayda dvoryan oilasida tug'ilib o'sdi. U 11 yoshida Neapoldagi maktabga o'qishga bordi. 14 yoshida esa Neapol dorilfununining boshlang'ich kulliyoti talabasi bo'ldi va falsafa, mantiq hamda

*Barcha imtihon javoblarini yuklab olish uchun telegram kanalimizga obuna bo'ling!*



dialektikadan tahsil ola boshladi. 1565 yilda u rohiblik maktabiga o'qishga kirib, falsafa fanlari doktori va rohiblik darajasiga erishdi. Yosh Brunodagi tug'ma iste'dod, ibodatxonadagi kitoblar hamda fe'l-atvoridagi mag'rurlik va mustaqillik hammasi bir bo'lib o'z ishini qildi. Bruno ibodatxonadagi din peshvolari bilan kelisholmay avval ibodatxonani, keyin Italiyani tark etdi. U Shveytsariya, Farangiston, Angliya shaharlari bo'ylab kezib, Tuluza, Parij, Oksford dorilfununlarida ma'ruzalar qildi, muhim ilmiy bahslarda qatnashdi. 1584-1585 yillari Bruno Londonda yashadi. Bu yerda uning dunyoqarashlari tizimini aks ettiruvchi 6 ta suhbatni o'z ichiga olgan kitoblari bosmadan chiqdi: «Koinot va olamlarning cheksizligi haqida» (1584), «Sabab, ibtido va umumiylik haqida» (1584), «Zamonamizning riyoziyotchi va faylasuflariga qarshi 160 ta asosiy qoidalar» (1588 y), «Qahramonona tashabbuskorlik haqida» (1585), «Qiyomatdagi bazm», «O'ttiz haykal chirog'i» (1587). Bruno 1591 yilning kuzagida Italiyaga qaytadi va 1592 yilning may oyida shakkoklikda ayblanib, hibsga olinadi. Bruno to'qqiz yil davomida turmada ayovsiz qiynoqlar, xo'rliklar iskanjasida azob chekadi. Katolik cherkovi sudi bir so'zli faylasufning irodasini sindirish va o'z qarashlaridan voz kechishga majburlash uchun barcha qiynoqlarni ishga soladilar. Lekin Bruno o'z e'tiqodiga sodiq qoladi. Jasur donishmandni o'tda kuydirib, qatl etishga hukm qiladilar. 1600 yilning 17 fevralida Italiyaning buyuk farzandi Brunoni gulxanda yondiradilar. «O'tda yoqmoqlik — inkor etmoqlik emas!» Bu so'zlar alanga iskanjasida qolgan Brunoning so'nggi nidosi edi.

## 25-BILET

### 1. Telefonning yaratilishi va uning bugungi kundagi ahamiyati.

Bugungi kunda deyarli barcha oilalarda hech bo'lmaganda bitta uyali telefon apparati bor. U xabar uzatish va qabul qilish uchun juda qulay. Bir so'z bilan aytganimizda, odamlarning uzog'ini yaqin qiladigan «dastyor». Xo'sh, bu dastyorning o'tmish-doshi bo'lgan simli telefon apparati qachon yaratilgan? Dastlabki telefon apparatini 1876-yilda Zamonaviy telefon Angliyada tug'ilib, Amerikada yashagan apparatlari Aleksandr Bell yaratdi. Keyinchalik dunyoning boshqa mamlakatlari ixtirochilari uni takomillashtirdilar. Bugungi kunda insonlar telefon orqali dunyoning istalgan qismi bilan aloqa qila oladilar.

### 2. Eyfel minorasining qurilishi va uning o'ziga xos me'morchilik uslublari haqida ma'lumot bering.

Eyfel minorasi Siz bilgan boshqa minoralardan farqli o'laroq, metalldan ishlangan. U 1899-yilda Fran-siyaning quruvchi-muhandisi Aleksandr Eyfel tomonidan Parij shahrida bunyod etilgan. Muhandis uni XIX asr texnikasi yutug'ining ramzi sifatida qurgan edi. Metalldan ishlangan va o'sha davrda jahonda tengi bo'lmagan bu minora Jahon ko'rgazmasida namoyish etilgan. Minora-ning balandligi 300 metrga yaqin bo'lib, og'irligi 9 ming tonnani tashkil etgan. Minoraning quyi qismi kvadrat piramida ko'rinishiga ega.

### 3. Wolfgang Amadey Motsart hayoti va ijodi.

Wolfgang Amadeus Mozart (27-yanvar, 1756, Zalsburg — 5-dekabr, 1791, Vena) klassik eraning mashhur va ko'p ta'sir ko'rsatgan bastakori bo'lgan. Uning 600 dan ortiq kompozitsiyalari orasida simfoniya, konserto, kamer, pianino, opera va xor uchun yozilgan asarlar bor. Mozartning ishlaridan boshqa ko'pgina bastakorlar ilhomlanishgan va uning asarlari hamon orkestrlarning standart repertuarlaridan joy olgan.

Mozart — avstriyalik kompozitor. Vena klassik maktabining yirik namoyandasi. Sozanda, o'qituvchi va kompozitor. Leopold Mozartning o'g'li va shogirdi. Yoshligidanoq noyob musiqiy iste'dod va xotira egasi, virtuoz sozanda (pianinochi, skripkachi), mohir dirijyor va

*Barcha imtihon javoblarini yuklab olish uchun telegram kanalimizga obuna bo'ling!*



kompozitor sifatida tanilgan: 5 yoshidan ilk musiqa asarlarini ijod etgan, 6 yoshdan butun Yevropa bo'ylab gastrolga bo'lgan. 1770-yildan Bolonya Filarmoniya akademiyasi a'zosi. Zalsburg knyazarxiyepiskop saroyida konsertmeyster (1769—77) va organchi (1779—81), Avstriya imperatori Iosif II saroyida musiqachi va kompozitor (1787-yildan).

Ma'rifatchilik davri g'oyalari ta'siri ostida kamol topgan Mozartning ijodi 18-asrning badiiy cho'qqilaridan biri. Mozart uslubida klassik tizimga xos ratsionalizm mezonlari bilan birga sentimentalizm xususiyatlari o'zaro tutashgan. Keng qamrovli musiqiy-badiiy obrazlar dunyosida jo'shqinlik va chuqur ehtiros, iroda va matonat, ayni paytda nafislik va mayinlik xususiyatlari keng o'rin olgan. Uning shodlik, xushchaqchaq tuyg'ularga boy, hayotbaxsh ijodida fojia mavzulari, dard-alam kayfiyatlari ham chuqur ifoda topgan.

## 26-BILET

### 1. Salib yurishlari haqida ma'lumot bering.

Salib yurishlari -G'arbiy Yevropa feodallarining Yaqin Sharqdagi bosqinchilik va talonchilik urushlari edi Bu yurishlar 1096 1270-yillar oralig'ida bo'lib o'tgan. Sharqdagi yerlarni egallash orqali cherkov o'zining ta'sirini yanada kuchaytirishni maqsad qilgan. Sharqda XI asr oxirida vujudga kelgan vaziyat salib yurishlari uchun qulay sharoit tug'dirgan. Kichik Osiyo yarimoroli deyarli to'liq saljuqiy turklar qo'lida edi Bu yerdan G'arb mamlakatlari ziyoratchilari Falastinning muqaddas joylariga, rivoyatlarga ko'ra, Iso paygambar dafn etilgan Quddusga boradigan yo'llar o'tardi. Quddus esa deyarli besh asrdan buyon musulmonlar qo'lida edi. Mahalliy hukmdorlar va aholining ziyoratchilarga munosabati yomon bo'lmasada, XI asr oxiridan boshlangan musulmon hukmdorlarining o'zaro urushlari xristianlar ziyoratlarini tobora xavfli tadbirga aylantira borgan. Vizantiya imperatori Rim papasi bilan kelishmasada, xristianlar dushmanlari bilan kurashish uchun jangchilar vuborishini so'rab, G'arbgamurojaat qiladi. Papa Urban II 1095-yilda Fransiyaning janubidagi Klermon shahrida cherkov yig'iniga to'plangan minglab mhoniylar, ritsarlar va oddiy xalq vakillari huzurida nutq so'zlaydi U Quddusdagi «payg'ambar qabrini» musulmonlardan ozod etishga chaqiradi Papa yurishda ishtirok etganlarga ulaming gunohlari kechirilishini, halok bo'lganlar ruhining jannatga - «arshi-a'loga» tushishini va'da qiladi. Urban II «muqaddas yer»ning boyiiklari va hosildor ekanligini ham eslatib o'tadi. Falastinda «sut va asal daryo bo'lib oqishi, Quddus yerning kindigi, jannatmakon hosildor yerli o'lka» ekanligini ta'kidlaydi. Bu so'zlamixaloyiq «Xudoning irodasi shu!», «Xudoning xohishi shu!» kabi hayqiriqlar bilan qarshilaydilar Ular matodan «but», ya'ni «salib»ning aksini qirqib, o'z kiyimlariga tika boshlaydilar Ayni shu sababli yurish qatnashchilari «salibchilar», yurishlarning o'zi esa «salib yurishlari» nomini oladi. Dchqonlar salib yurishlarida qatnashish orqali o'zlarining og'ir hayotidan qutulib, Sharqda mulkka va baxtli hayotga erishishga umid qilganlar. Salibchilarning ko'pchiligini, asosan, ritsarlar tashkil etib, aksari boy bo'lmagan xonadonlardan edilar Oilaning kichik o'g'illari, mayorat tizimi bo'lganidan, ya'ni meros katta o'g'ilga qoldirilgani sababli, ota-onalari merosining katta qismiga umid qilmasalar ham bo'lardi. Bu holatdagi ritsarlar o'zlariga shonshuhurat va boyluk istab yo'lga chiqqanlar. Gersoglar, graflar va hatto ayrim qirollar hamda imperatorlar ham Sharqqa jo'naydilar. Ular o'zlariga yangi hududlar va luqarolarni bo'ysundirishni maqsad qilganlar Qo'shin bilan savdogarlar ham yo'lga chiqib, ular Sharq mollari bilan savdo qilish orqali tez boyib ketishni orzu qilganlar Albatta, salib yurishi ishtirokchilari faqat foydani o'ylagan desa xato bo'ladi Moddiy manfaat ularda «payg'ambar qabri»ni musulmonlardan xalos etish muqaddas ish ekanligiga ishonch bilan mujassamlashgan. Birinchi salib yurishlariga Fransiya, Italiya va Germaniyaning turli

*Barcha imtihon javoblarini yuklab olish uchun telegram kanalimizga obuna bo'ling!*



viloyatlaridan kelgan ritsarlar to'plangan. Ular yaxshi qurollangan, zarur ozuqa va pul bilan ta'minlangan edilar Vizantiya poytaxti Konstantinopolda 1096-yilning kuzidan to'plana boshlagan ritsarlarga imperator Aleksey I vassallik qasamyodini qabul qildirgan Ya'ni Yaqin Sharqda tuzilajak xristian davlatlari Vizantiyaga siyo siy qaram bo'lishi lozim edi. Yurishlar Suriya bilan Falastinda salibchilarning o'z davlatlarini tuzishi bilan yakunlanadi Ulaming ichida Quddus qirolligi salibchilarning asosiy davlati edi Salibchilar Quddusni egallashda birgina jome masjidida 10 ming musulmonni o'ldiradilar Yahudiylar o'z sinagogasi (ibodatxona)da yondirib yuboriladi

## **2. Persepol shoh saroyining o'ziga xos qurilish uslublari.**

Doro I butun mamlakat uchun "darik" deb nomlangan yagona oltin tangani muomalaga kiritadi. U qadimgi Fors podsholigi qarorgohi Persepol shahridan O'rta Yer dengiziga qadar "shoh yo'li" deb ataluvchi savdo yo'lini qurdirgan edi. Doro I qo'shinlarni qaytadan tuzdi, saltanatni satrapi-yalar deb nomlangan alohida harbiy-ma'muriy o'lkalarga bo'lib chiqdi. va boshqa shaharlar Ahamoniylar davlatidagi muhim savdo markazlari bo'lgan. Persepol shahrida Doro I va Kserksning turli xonalar va yuz ustunli zali bo'lgan saroyining qoldiqlari saqlanib qolgan. Saroy afsonaviy va xayoliy qushlar tasviri bilan bezatilgan edi. Persepol saroyi devorlaridagi bo'rtma naqshlarda ahamoniylar bo'ysundirgan ko'pgina elatlar-ning tasvirlari saqlanib qolgan. Ular asosan Fors shohlariga o'lpon keltirayotgan holatda tasvirlangan.

Qadimgi forslar mixxat belgi-yozuvidan foydalangan. Fors shohlarining bitiklari Behistun va Naqshi Rostam qoyaloriga, shuningdek, Persepol saroyi devorlariga o'yib yozilgan. Ular yurishlar, qo'zg'olonlar va davlat hayotidagi muhim voqealar haqida ma'lumot beradi.

## **3. Astronom olim Nikolay Kopernik ijodi va faoliyati.**

Nikolay Kopernik 1473-yilning 19-fevralida Polshaning Toruni shahrida tavallud topdi. Uning otasi savdogar bo'lib, bu shaharga Germaniyadan ko'chim kelishgan edi. Nikolay Kopernik oilada to'rtinchi farzand bo'lgan. o'n yoshgacha Nikolay Kopernik farovon va to'qchilikda hayot kechirdi. Uning baxtiyor bolaligi, bo'lajak olim roppa rosa o'n yoshga to'lgan vaqtda to'satdan qayg'uli yillarga almashindi. Yevropaning deyarli yarim aholisini hayotdan olib ketga o'lat epidemiyasi Torunga ham yetib kelib, Nikolay Kopernikning otasini ham o'zining dastlabki qurbonlaridan biriga aylantirdi. Padaridan ayrilgan Kopernikning keyingi taqdiri, uning o'qishi va tarbiyasi muammolari tog'asi

Aynan Boloniyada Kopernik astronomiyaga bo'lgan qiziqishlarini o'zining ilmiy faoliyatiga asos bo'ladigan darajada shakllantirdi. 1497 yil 9 mart oqshomida astronom Domeniko Mari Novara bilan birgalikda Nikolay Kopernik o'zining eng dastlabki ilmiy astronomik kuzatishlarini olib bordi. Bu kuzatishdan keyin Kopernik Oyning kvadraturada joylashgan vaqtidagi yerdan uzoqlik masofasi, yangi oy, yoki to'lin oy vaqtidagilar bilan bir xil ekan. Universitetda o'rgatilgan Ptolomey ta'limoti faktlari bilan bunday nomuvofiqlik Nikolay Kopernikni chuqur ilmiy mulohazalar qilib ko'rishga undadi.

## **27-BILET**

### **1. Fransiya-Prussiya urushi va uning yakunlari haqida ma'lumot bering.**

Fransiya-Prussiya urushi (1870-1871) Fransiya va Prussiya (bugungi Germaniya) davlatlari orasida sodir bo'lgan urush hisoblanadi. Bu urushning asosiy sababi Prussiyaning Fransiyaqa saldirganlarining Fransiyaqa yo'l qo'ymaganlari, qo'shinlarni surib olib qaytishlari va Fransiya imperiyasining qayta tiklanishi uchun boshqa bir davlatdan yordam so'ralishidan kelib chiqdi.



Urushning asosiy jang bo'lgan Sedan jangi 2 sentyabr 1870-yilda sodir bo'ldi. Prussiyaliklar Fransiyaliklar qarshisida muvaffaqiyatsiz davom etgan bir jangdan keyin Sedan qal'asiga hujum qilishdi va jangi tugatdilar. Bu Prussiyaliklar uchun katta g'alaba bo'ldi va Fransiya imperiyasi tasodifiy ravishda qoldi. 1871-yilning 28-martida, Versalda to'plangan diplomatik konferentsiyada, Fransiya imperiyasi rasmiy ravishda Prussiyaliklar tomonidan mag'lub qilingan e'lon qilindi. Konferentsiya natijasida Fransiya imperiyasi Alsace-Lorraine mintaqasini Prussiyaga topshirishdi va 5 milliard franklik jarima to'lashga majbur bo'ldi. Urush Fransiya imperiyasini to'liq buzdi va boshqa mamlakatlar o'zlarining xalqaro munosabatlari o'zgarishini ta'sir qildi. Prussiya esa uning ittifoqi Osiyoni yuzasidan iqtisodiy kuchini kuchaytirdi va bugungi Germaniya Davlatining tashqi siyosati uchun muhim o'zgarishlar tayyorladi.

## **2. Toj mahal maqbarasining dunyo me'morchiligidagi o'rni.**

Toj Mahal, Hindistonning Agra shahrida joylashgan, Mugal imperatorlarining qadimiy qabr monumentidir. Bu obidning ismi shahzoda Mumtaz Mahalning, Mugal imperatori Shah Jahan o'g'li tomonidan inqirozlar natijasida vafot etgandan so'ng, uning yodini o'zida saqlash maqsadida qo'llangan. Ism ma'nosi "sariq toj" yoki "yaxshi toj" degan manoda.

Toj Mahal Shah Jahan tomonidan 1632-1653 yillari oralig'ida tikilgan va uning ijro etilishida ko'p sonli mahalliy va xalqaro ustaxonalar ishtirok etgan. Monument tuzilishi ham insoniy mehnatning namunalaridan hisoblanadi, chunki ko'p qo'l ishlab chiqarilgan eng yuqori sifatli materiallardan tuzilgan. Obidning katta qismi marmar, yong'in va granitdan, va teshikli yuzasi ustozlari tomonidan chizilgan ko'p o'rtacha doimiy mahsulotlardan iborat.

Toj Mahal 1983-yilda UNESCO tomonidan dunyo yodgorliklari ro'yxatiga o'rnatilgan va undan keyin shaharning shahsiy g'oyasi ekanligi uchun mamlakatimiz turistlari uchun keng ko'rib chiqiladigan obidlardan biri bo'lib turib, mamlakatimizning tashqi siyosati va turizm sifatini ko'rsatadigan turistik manba sifatida hisoblanadi.

## **3. Daniel Defo hayoti va ijodi.**

Daniel Defoe (talaffuzi: Daniyel Defo) (tahminan 1659—1661 yillarda Londonda tavallud topgan — 1731-yil 24-aprelda Londonda vafot etgan) Ingliz buyuk yozuvchisi va jurnalisti. O'zining „Robinson Crusoe“ (1719) shoh asari bilan dunyoga mashhur bo'ldi. Daniel Defoe bu asari bilan ingliz romanchiligiga katta hissa qo'shgan. Daniel Defoe yozuvchilik bilan birga jurnalistlik ham qilgan. U ko'plab asar yozgan: Defoening qalamagia 500 dan oshiq kitob, pamflet va siyosiy risolalar mansubdir. "Loyihalar to'g'risida tajribalar" (1697) pamfletila bir qator siyosiy va iqtisodiy islohotlar o'tkazishpi taklif etgap Ko'pgina asarlarida tadbirkorlik, akl-idrok, e'tiqod va so'z erkinligini yoqlagan, demokratiya g'oyalarini ilgari surgan ("Xokisor odamning tavsiyanomasi", 1698 va boshqalar). D. maqtanchoq aslzodalarni fosh etadi ("Aslzoda ingliz", 1701). 1702 yilda pinhoni nom bilan "Dissenterlardan kamos olishning eng oson yo'li" nomli pamfletini e'lon qilgani uchun qamaladi. D.ning "Robinson Kruzoning hayoti, ajoyib va g'aroyib sarguzashtlari" bu roman mexnat' aniq insoniy fikir' tirishqoqlik va jasorat madhiyasi bo'lib qoldi.(1719) romani unga olamshumul shuhrat keltiradi. "Kapitan Singleton" (1720), "Polkovnik Jak tarixi", "Moll Flenders" (1722), "Roksana" (1724) sarguzasht romanlari ham qiziqarli tafsilotlarga boy. Jahon adabiyotida "Robinson Kruzo" romaniga taqlidan juda ko'p asarlar yaratilgan. Bu roman Yo'ldosh Shamsharov tarjimasida o'zbek tilida bir necha bor nashr etilgan.

## **28-BILET**

### **1. BMTning tashkil topishi.**

*Barcha imtihon javoblarini yuklab olish uchun telegram kanalimizga obuna bo'ling!*



Birlashgan Millatlar Tashkiloti 1945-yilning 24-oktabrida tuzildi. Antilashist koalitsiya davlatlari urushdan kevingi dunyo tuzilishi tamoyillari to'g'risi dagi o'z qarashlarini Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) Ustavida bayon qildilar BMT Ustavi ko'plab xalqlar kurashining mazmuniga aylangan va Yer yuzidagi barcha xalqlarning tinchlik va tenglikda yashash tamoyillari bo'lgan umuminsoniy qadriyatlarni e'lon qildi. Rossiya, AQSh, Buyuk Britaniya, Fransiya Xitoy BMT Xavfsizlik Kengashiningdoimiy a'zolari hisoblanadi Bugungu kunda 193 ta davlat BMTga a'zo,

## **2. Piza minorasining tarixdagi o'rni haqida ma'lumot bering.**

Piza minorasi jahon madaniyatining mashhur namu- nalaridan biri sanaladi. U XII—XIV asrlarda Italiyaning Piza shahridagi Sobor maydonida qurilgan. Minora 8 qavatli bo'lib, oq marmardan ishlangan. Minora silindirsimon shaklga ega, ba- landligi 54,5 metrni tashkil etadi. Sirt qismi olti belbog' bilan o'ralgan. Minoraning tepasiga 300 ta pillapoyali zinadan chiqilgan. Piza minorasi «Qulayotgan minora» deb ham ataladi. Bunga u qurilgan joyning cho'kishi oqibatida minoraning bir to- monga og'ganligi sabab bo'lgan. Og'ishni to'xtatish choralari ko'rilgan bo'lsa-da, o'tgan bir necha asr davomida bu og'ish 5 metrga yaqinlashib qoldi. Keyingi 100 yil ichida esa bu ko'rsatkich 30 sm ni tashkil etdi.

## **3. Iogann Volfgang Gyote hayoti va ijodi.**

Johann Wolfgang von Goethe (Iogann Volfgang fon Gyote; 28-avgust 1749, Frankfurt, Germaniya — 22-mart 1832, Veymar, Germaniya) — nemis yozuvchisi va mutafakkiri. Yangi davr nemis adabiyotining asoschisi. Ijodi 18-asrning 70—80-yillari Germaniyada mavjud bo'lgan "Bo'ron va hujum" adabiy harakatida ishtirok etishdan boshlangan. Shu davrda G. "Ges fon Berlixingen" (1773), "Prometey" (1773) kabi dramalar va lirik she'rlar yaratdi. Uning „ Gets fon Berlixingen "G. adabiy faoliyatining ilk davriga mansub "Yosh Verterning iztiroblari" , „Muhammad(1774) romani o'sha davr nemis adabiyotida katta voqea bo'ldi. Asarda ilg'or nemis yoshlar avlodining ijtimoiy fojiasi o'z aksini topgan. 1786—88 yillarda G. Italiyaga safar qiladi. Shu davrda u "Ifigeniya Tavridda" (1779— 81), "Egmont" (1788), "Torkvato Tasso" (1780—89) kabi dramalar yozadi. "She'riyat va haqiqat" avtobiografik kitobi (1811—33), "Vilxelm Maysterning o'qish yillari" (1793—96), "Vilxelm Maysterning darbadarlik yillari" (1821—29) romanlarida inson bilan jamiyat o'rtasidagi munosabat masalasi aks etgan.

## **29-BILET**

### **1. Buyuk fransuz burjua inqilobining boshlanishi.**

Buyuk fransuz inqilobi — Fransiya tarixida mustabid tuzumga barham bergan va yangi ijtimoiy taraqqiyotga yo'l ochgan inqilob (1789—99). Qirol Lyudovik XVI 1789-yil 5-mayda Bosh shtatlar (parlament) majlisini chaqirdi. 3toifa deputatlari 17-iyunda o'zlarini Milliy majlis, 9-iyulda esa Ta'sis majlisi deb e'lon etdilar. Majlisni tarqatib yuborish maqsadida qilingan urinishlar xalq qo'zg'oloniga sabab bo'ldi. 14-iyulda Bastiliya turmasiga hujum boshlandi. Bu Buyuk fransuz inqilobining boshlanishi edi. Avgust oyida Inson va fuqaro huquqlari deklaratsiyasi qabul qilindi. Parij Kommunasi boshchiligidagi 1792-yil 10-avgust qo'zg'oloni natijasida monarxiya tuzumi ag'darildi. Siyosiy rahbarlik yirik savdo-sanoat mulkdorlar vakillari — jirondistlar qo'liga o'tdi. Inqilobni chuqurlashtirish tarafdori bo'lgan yakobinchilar jirondistlarga qarshi chiqdi. 1793-yil yanvarda Konvent (oliy qonun chiqaruvchi va ijrochi organ) hukmi bilan qirol Lyudovik XVI davlatga xoinlik qilishda ayblanib, qatl etildi. 1793-yil 31-may — 2-iyun qo'zg'oloni oqibatida yakobinchilar diktaturasi o'rnatildi. Yakobinchilar hukumati xalqni safarbar etib, uning Fransiya bostirib kirgan Yevropa

*Barcha imtihon javoblarini yuklab olish uchun telegram kanalimizga obuna bo'ling!*



monarxiyachi davlatlar (Prussiya, Avstriya va boshqalar) qo‘shini ustidan g‘alabasini ta‘minladi. Biroq yakobinchilar avj oldirgan ommaviy terror ularning ijtimoiy bazasini toraytirib yubordi va mag‘lubiyatga olib keldi. 1794-yil termidor (Fransiya Respublikasi ta‘sis etgan kalendar bo‘yicha 11 oy) to‘ntarishi yakobinchilar diktaturasiga chek qo‘ydi. Hokimiyat yirik mulkdorlar qo‘lida jamlandi. Direktoriya (1795-yil apreldan 1798-yilda MISRGA qilinsa yurish Napoleoni siyosiy hokimiyatini egallash chorladi.) 1799-yil 10-noyabrgacha Fransiya hukumati) o‘z tuzumini o‘rnatdi. 1799-yil 18 bryumer kuni uyushtirilgan davlat to‘ntarishi fransuz inqilobiga barham FRANSIYADAGI burjua inqilobi nihoyasiga yetdi. Bu inqilob butun dunyo tarixi uchun ham ma‘lum ma‘noda burilish nuqtasi bo‘ldi. U olg‘a surgan «OZODLIK, TENGLIK, BIRODARLIK!» g‘o‘oyalari butun dunyo xalqlarining keyingi rivojiga arzigulik ta‘sir ko‘rsatdi. Shuningdek, inqilob tarixi ko‘plab xalqlar uchun katta saboq ham bo‘ldi. Uning ayovsiz qorinlari, barcha muammolarni hal etishning vositasi sifatida terrorning qo‘llanilishi kabilar ham inqilobi keltirgan dahshatli reallik bo‘ldi.

### **2. Ma‘buda Artemida ibodatxonasi haqida ma‘lumot bering.**

Ma‘buda Artemida sharafiga Efes shahrida (bu shahar hozir Turkiya davlati hududida joylashgan) qurilgan ibodatxona ko‘rgan- larni lol qoldirgan.

Artemida hosildorlik, ov va Oy ma‘- budasi deb ishonilgan. Ayni paytda hay- vonlar homiysi va ayollar madadkori ham hisoblangan. Ibodatxona ichiga yunon rassomlarining ajoyib asarlari joylash- tirilgan.

### **3. Jonatan Svift hayoti va ijodi.**

Jonathan Swift (talaffuzi: Jonatan Svift) (30-noyabr 1667 — 19-oktabr 1745) — ingliz/irland yozuvchisi, shoiri va satirachisi. Swift ingliz nasrining eng yuksak namoyondalaridan hisoblanadi. Swiftning shoh asari ilk bor 1726-yilda chop etilgan „Gulliverning sayohatlari“ romanidir. Bu asar dunyoning ko‘p tilariga, shu jumladan o‘zbek tiliga tarjima qilingan. Romanni ko‘pchilik bollar uchun yozilgan deb o‘ylaydi. Ammo „Gulliverning sayohatlari“ aslida insoniyat haqida satiradir. Jonathan Swift ilk asarlarini M.B. Drapier, Lemuel Gulliver, Isaac Bickerstaff kabi turli taxalluslar ostida yozgan. Ba‘zi asarlarida esa ismini ko‘rsatmagan. Jonathan Swift satiralarida siyosat, adabiyot va inson jamiyatiga oid mavzular haqida yozgan.

## **30-BILET**

### **1. Samolyotning yaratilishi haqida ma‘lumot bering.**

Odamzod uzoq-uzoq davrlardayoq osmonga parvoz qilishni orzu qilgan. XIX asrning oxiri — XX asr boshlariga kelib, odamning bu orzusi ushaldi. Rus olimi Aleksandr Fyodorovich Mojayskiy 1885-yilda ikkita bug‘ dvigateli o‘rnatilgan birinchi samolyotni yaratdi. Olimlar va konstruktorlar dvigateli yonilg‘i (benzin, kerosin) bilan ishlaydigan samolyot yaratish ustida ham bosh qotir- dilar. Nihoyat, 1902-yilda amerikalik aka-uka Uilber va Orvill Raytlar dunyoda birinchi bo‘lib shunday samolyot yaratdilar. Ular 1903-yilda 3 metr balandlikda birinchi parvozni amalga oshirdilar. Parvoz atigi 12 sekund davom etdi. Shu vaqt ichida 30 metr masofa bosib o‘tildi. Parvoz juda qisqa davom etgan bo‘lsa-da, bu katta tarixiy hodisa edi. Chunki bu ham uchib, ham qo‘ndirilgan birinchi haqiqiy parvoz bo‘ldi. Keyingi yillarda aka-ukalar samo- lyotni takomillashtirishni davom ettirdilar va soatiga 60 km tezlik bilan uchadigan samolyot yaratdilar. 1913-yilda esa rossiyalik konstruktor Igor Sikorskiy «PyccKHH BHTH3B» (Rus pahlavoni) deb atalgan birinchi 4 dvigatelli ajoyib samolyotni yaratdi. Bugungi kunda samolyot millionlab kishilarning uzog‘ini yaqin qilmoqda. Ming- minglab tonna yuklar tashilmoqda. Ular safida «O‘z- bekiston havo yo‘llari» aviakompaniya- sining samolyotlari ham bor.

*Barcha imtihon javoblarini yuklab olish uchun telegram kanalimizga obuna bo‘ling!*



## **2. Tauer ko'prigining qurilishi.**


Dunyoning mashhur tarixiy obidalaridan yana biri Angliyaning poytaxti London shahrini kesib o'tuvchi Temza daryosi ustiga qurilgan Tauer ko'prigidir. Ko'prikn muhandis G. Jons loyhalashtirgan edi. Ko'priq qurilishi 1894-yilda tugallangan. Shu yili ko'priknning tantanali ochilish marosimi o'tkazilgan.

Dunyoning bu nodir tarixiy obidasi Temza daryosi ustiga qurilgan boshqa ko'priklardan ikki qavatli qilib qurilganligi bilan farq qiladi. Ko'priknning umumiy balandligi suv ustidan 45 metrn tashkil Tauer ko'prigi etadi. Temza daryosidan kemalar qatnayotganida birinchi qavat balandga ko'tarilib, ikki tabaqaga aylanadi. Ikkinchi qavat piyodalar qatnaydigan ikki yo'lakdan iborat. Binobarin, kema qatnovi davrida ham ko'priktan yo'lovchilarning o'tishi to'xtab qolmaydi. Ko'priknning ikki boshiga ikkita minora qurilgan. Minoraning tepasiga 40 kishi sig'adigan lift orqali chiqiladi va lift orqali pastga tushiladi. Tauer ko'prigi o'zining go'zalligi bilan London shahrining chiroyiga chiroy qo'shib keladi.

## **3. Iogann Sebastyan Bax hayoti va ijodi.**


Bach — buyuk nemis kompozitori, mash'hur organ ijrochisi, barokko davri hamda polifoniya uslubining yirik namoyandasi. Bach ijodida oldingi davr musiqa janr yo'nalishlari (shu jumladan, xor polifoniyasi, protestant xorali, organ musiqasi, italyan operasi, klavesin va klavir musiqasi) umumlashtirilib, o'z badiiy yakunini topgan. Bach musiqasida polifoniya yo'nalishlari bilan gomofoniya tizimlari o'zaro qorishib yagona uslub vujudga keltirgan. Bach merosiga mingdan ziyod asarlar kiradi, ular asosan organ musiqasi, klavir, skripka va boshqa cholg'ular uchun asarlar hamda vokal, vokal-dramatik janrlari va boshqa Bach ijodida organ muhim o'rin tutadi. U organning yangi imkoniyatlarini ochib berdi, organ prelyudiyasi, fantaziya, tokkata kabi janrlarini fuga bilan birlashtirdi.





*Barcha imtihon javoblarini yuklab olish uchun telegram kanalimizga obuna bo'ling!*





*Barcha imtihon javoblarini yuklab olish uchun telegram kanalimizga obuna bo'ling!*